
Qo'shtepa tumanida uchta fermer xo'jaligi birinchilardan bo'lib paxta tayyorlash shartnoma rejasini bajardi

Shu kunlarda tuman paxtazorlarida hosil yig'im-terim ishlari jadallik bilan davom etmoqda.

Paxta maydonlari "Qumtepa qamishtepa" MMTP hududida joylashgan "Abdurashid zamin gavhari" fermer xo'jaligi birinchi terimdayoq tumanda paxta rejasini ortig'i bilan bajardi. Mavsumda 30,2 gektar yerda paxta xosilini yetishtirgan xo'jalik mirishkori uygan paxta xirmoni 102 foizga bajarilib, 42 syentnerni tashkil qildi.

Shu munosabat bilan bugun tuman sektor rahbarlari g'olib fermer xo'jaligi a'zolarini qutlash uchun tashrif buyurishdi. Tushlik mahali tashkil etilgan tadbirda ilg'or terimchilarga va erta bahordan dala mehnat qilgan mirishkor dehqonlarga qimmatbaho esdalik sovg'alari topshirildi.

Ma'lumot o'rnida yana shuni alohida quvonch bilan tilga olish kerakki, "Qumtepa qamishtepa" MMTP hududidagi "Rustam Ravshanov" va "Havasmand Qorajiyda" MMTP hududidagi "Davri Tursun" fermer xo'jaliklari ham paxta tayyorlash shartnoma rejasini ortig'i bilan bajardi. Ushbu fermerlarning ilg'or terimchilari va mirishkor dehqonlariga ham sektor rahbarlari tomonidan qimmatbaho sovg'alar topshirildi.









2024-09-21 21:58:27